Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромова Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralarini	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA KONTENT MARKETINGDAN FOYDALANISH VA UNING BOSQICHLARI



Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Marketing va logistika" fakulteti magistranti



Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti marketing
kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli marketing davrida kompaniyalar iste'molchilar bilan aloqalarni yaratish uchun kontent marketing yondashuvidan foydalanish, shu jumladan, kontent yaratishning barcha bosqichlari ko'rib chiqiladi. Texnologik rivojlanish dunyosida kontentning turlari va uni kengaytirish va rivojlantirish tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: kontent marketing, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar, maqsadli auditoriya, marketing strategiyasi.

Abstract: This article explores companies in the era of digital marketing from a content marketing approach to creating relationships with consumers view all stages of content creation, including using. In the world of technological development, types of content and its expansion and development are described.

Key words: content marketing, digital marketing, social networks, target audience, marketing strategy.

Аннотация: В этой статье компании в эпоху цифрового маркетинга от подхода контент-маркетинга к построению отношений с потребителями просмотр всех этапов создания контента, включая использование. В мире технологического развития виды контента и его описаны расширение и развитие.

Ключевые слова: контент-маркетинг, цифровой маркетинг, социальные сети, целевая аудитория, маркетинговая стратегия.

KIRISH

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shuning bilan bir qatorda, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida bir qancha muhim qarorlarni qabul qilindi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi asosida iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: sanoat korxonalarida zamonaviy axborot tex-



nologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarini texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlash-tirish; korxonalar ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va sotib olish xarajatlarini qisqartirish; zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish; innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish; ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish; savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish; boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish.

Raqamli marketing – bu mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilish uchun kompyuterlar, mobil telefonlar va internetga ulanadigan boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanishda marketingning tarkibiy qismidir. Uning 2010 va 2015-yillardagi rivojlanishi kompaniyalarning marketing uchun texnologiyadan foydalanish usullarini o'zgartirib yubordi. Raqamli marketingning eng muhim afzalliklaridan biri bu shaxsiylashtirilgan va ma'lum xabarlar yordamida aniq iste'molchilarga yo'naltirish qobiliyatidir. Raqamli marketologlar iste'molchilarning xulq-atvori va afzalliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali maqsadli auditoriyaga ko'proq mos keladigan yuqori maqsadli reklamalarni ishlab chiqishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda xalqaro kompaniyalar va transmilliy korporatsiyalarda marketing faoliyatini rivojlantirish, marketing tadqiqotlarini takomillashtirish, yangi texnologik marketing yondashuvlarini o'zlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq qilingan. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligi uning bozorga yo'naltirilgan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amalda qo'llash bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular qatoriga F.Kotler, X.Kartajaya, M.Porter, I.Setiavan, D.Evans, I.Ansoff va M.Berman kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamlashtirish sharoitdagi iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan raqamli marketing va undagi kontent marketing bosqichlari va yo'nalishlari xalqaro tajriba asosida empirik tahlil usulini qo'llash orqali aniqlandi. Bundan tashqari bosqichma bosqich kontent marketing jarayonida tizimli yondashuvi, abstrakt-mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kontent marketing bu aniq belgilangan auditoriya (iste'molchilar guruhi uchun qiziqarli, dolzarb va foydali bo'lgan kontentni (tarkibni) yaratish, tanlash, tarqatish, kengaytirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan yangi turdagi marketing yondashuvi. Kontent marketing shuningdek, brendlar va iste'molchilar o'rtasida chuqurroq aloqalarni yaratadigan brend jurnalistikasining yana bir shakli hisoblanadi. Kontent marketing marketologlarning rolini brend targ'ibotchilaridan uning hikoyachilariga aylantiradi. Bu jarayon davomida marketologlar o'z brendlari haqida qiziqarli hikoyalarni o'zlarining mijozlariga taqdim etib boradi. Bugungi kunda trans milliy korporatsiyalar va kompaniyalarning aksariyati kontent marketingdan foydalanishmoqda. Kontent marketing so'nggi yillarda mashxur so'zga aylandi va u raqamli iqtisodiyotda reklama kelajagi sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli dunyoda interndan foydalanish mijozlarga brendlar bilan suhbatlashish va ular haqida yangi ma'lumotlar olish imkonini yaratdi. Hozirgi kunga kelib, iste'molchilar brendlar tomonidan taqdim qilinayotgan an'anaviy reklama murojaatlariga e'tibor pasaydi, ushbu o'zgarishda ijtimoiy tarmoqlar katta rol o'ynaydi.

Ilgari mijozlar an'anaviy reklamalar ya'ni, ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan kontentni diqqat bilan kuzatishardi, chunki boshqa tanlov yo'q edi. Ijtimoiy media tarmoqlar hammasini o'zgartirib yubordi, endi iste'molchilar an'anaviy ommaviy axborot vositadan ko'ra ishonchliroq va yanada jozibador bo'lgan yangi kontent murojaat qilishmoqda. Media kontentning jozibadorligi shundaki, u ixtiyoriy va talab bo'yicha foydalaniladi, ya'ni mijozlar kontentni xohlagan vaqtda va xohlagan joyda ko'rishlari mumkin. Raqamli marketing instrumentlari odamlarning ommaviy axborot vositalarini istalgan joyda va istalgan vaqtda iste'mol qilish imkonini yaratmoqda. Bunda kompaniyalar sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalarga ko'proq tayanishmoqda. Xalqaro statistika platformasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda global kontent marketing faoliyatini bozordagi daromadi taxminan 72 milliard AQSh dollariga baholanmoqda. 2024-yilda u 82 milliardga oshishi va keyingi yillarda o'sishda davom etib, 2026-yilda 107 milliardga yetishi taxmin qilinmoqda (1-rasm).



1-rasm: Butun dunyo bo'yicha kontent marketingning kelgusi 4 yillik prognozi

Manba: www.statista.com/statistics/527554/content-marketing-revenue/

Bosqichma-bosqich kontent marketing

Kontent marketing kontentni ishlab chiqish va taqsimlashni o'z ichiga oladi. Kompaniya marketologlari kontentni eng yaxshi kanallar orqali tarqatishlari kerak. Quydagi kichik bo'limlarda biz marketing bo'yicha uning 8 ta asosiy bosqichlarini sanab o'tamiz. Har bir bosqichda marketologlar keyingi bosqichga o'tishdan oldin barcha kerakli bo'limlarni tekshirish va tahlil qilish kerak.

1-bosqich: Maqsadlarni belgilash

Kontent marketingni boshlashdan oldin, marketologlar o'z maqsadlarini aniq belgilashi lozim. Agar aniq maqsadlar qo'yilmasa, marketologlar kontentni yaratishda va tarqatishda tushunmovchiliklarga uchrashi mumkin. Kontent marketing maqsadlari 2 ta toifaga bo'linadi. Birinchi toifa, sotish bilan bog'liq maqsadlar; bularga mahsulot yoki xizmatni sotishga yo'naltirish kiradi. Ikkinchi toifa - brendni tanitish bilan bog'liq maqsadlar; brend xabardorligi yoki brendga sodiqlik, shu kabilar kiradi. Maqsadlarni aniqlash marketologlarga kontent marketing strategiyasini yaxshiroq va samaraliroq ishlab chiqishga yordam beradi.

2-bosqich: Auditoriyani aniqlash


Maqsadlar aniq belgilangandan so'ng, marketologlar o'zlari e'tibor qaratmoqchi bo'lgan auditoriyani aniqlashi lozim. Muayyan auditoriya yoki iste'molchilar guruhini aniqlash marketologlarga aniqroq bo'lgan kontent yaratishda yordam beradi, bu esa o'z navbatida brendning ijobiy nom qozonishiga xissa qo'shadi. Auditoriyani aniqlashda segmentlash ya'ni; ularni geografik, demografik, psixografik va xulq-atvor jihatlaridan iste'molchilarni guruhlash auditoriya xaritasini shakllantirishga yordam beradi.

3-bosqich: Kontentni rejalashtirish

Maqsadli auditoriyani aniqlagandan so'ng keyingi qadam, kontentni rejalashtirish. Tegishli mavzular, mos formatlar va ijodkorlik bilan yondashilgan g'oyalar yig'indisi muvaffaqiyatli kontent marketing strategiyasini yaratishni ta'minlaydi. To'g'ri mavzuni topishda marketologlar 2 ta omilni xisobga olishlari kerak. Birinchisi, sifatli kontent mijozlar hayotiga aloqador bo'ladi. Bunda barcha ma'lumotlar auditoriya uchun nimanidir anglatishi kerak. Ikkinchidan, qiziqarli kontent rejasida brendning belgilari va kodlarini aks ettiruvchi hikoyalar mavjud bo'ladi.

4-bosqich: Kontentni yaratish

Bu bosqich eng muhim bosqich hisoblanadi, chunki kontent yaratishda ko'plab resurslarni talab qiladi. Kontentni yaratish vaqt va budjet nuqtayi nazaridan katta majburiyatdir. Agar kontent yuqori sifatli, original va ijodkorlikga boy bo'lmasa, kontent yaratuvchisi vaqtini behuda sarflashga va ba'zida teskari natijaga olib kelishi mumkin. Kontent yaratishda 2 xil usuli mavjud bo'lib, birinchisi brend yoki kompaniyaning marketologi kontentni yaratishi, ikkinchisi kontent yaratishni professional kontent ishlab chiqaruvchilariga topshirishdir: jurnalistlar, ssenariy mualliflari, animatorlar va videograflar. Kontent yaratishni boshlanish va tugash sanalari yo'q, bu izchillikni talab qiladigan doimiy jarayon. Shu sababli, marketologlar uzoq muddatga kontentni yetkazib berish uchun ichki imkoniyatlarga (resurslarga) ega ekanligi ishonch hosil qilishlari kerak.



2-rasm: Kontent marketing bosqichlari¹

1 Philip Kotler, Hermawan Kartajaya & Iwan Setiawan, Marketing 4.0. Moving from Traditional to Digital, Published by John Wiley & Sons, New Jersey, 2017. P.152-153



5-bosqich: Kontentni tarqatish

Marketologlar yuqori sifatli kontentni ishlab chiqsa, ammo u maqsadli auditoriyaga yetib bormasa, bu foydasizdir. Marketologlar kontentni to'g'ri taqsimlashi orqali iste'molchilar e'tiborini qozonishi kerak. Marketologlar kontentni tarqatishni 2 xil usuli mavjud: brendning shaxsiy media kanallari va boshqa pullik media kanallari. Birinchisi, brendga tegishli bo'lgan media kanallar, bunda brend istalgan vaqtda kontentni o'zining shaxsiy media kanallarida tarqatishi mumkin. Bularga kompaniyaning veb saytlari, shaxsiy bloglari, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlari va kompaniyaning mobil ilovalari kiradi. Ikkinchisi, boshqa pullik media kanallari, ya'ni brend o'z kontentini tarqatish uchun pul to'lanadigan kanallardir. Ularga raqamli media bilan bir qatorda elektron ommaviy axborot vositalari, bosma ommaviy axborot vositalari va tashqi manba vositalari kabi an'anaviy reklama vositalarini o'z ichiga oladi. Kontentning sifati juda yuqori bo'lsa, mijozlar ko'pincha ularni ijtimoiy tarmoqlar va do'stlar orqali virusli tarzda tarqatishadi.

6-bosqich: Kontentni kuchaytirish

Marketologlar kontentni kuchaytirishda qiladigan birinchi qadami bu maqsadli auditoriyaga ta'sir o'tkazuvchilarni (influencer) aniqlash va ulardan foydalanishdir. Ta'sir o'tkazuvchilar (influencerlar) bular ijtimoiy hayotimizda hurmatga ega shaxslardir; mashhur sportchilar, shou biznes vakillari, blogerlar, biznesmenlar va boshqa obro'li shaxslar. Marketologlar ta'sir o'tkazuvchilar bilan kontentni tarqatishda o'z mavqeini yanada yaxshilashi mumkin.


7-bosqich: Kontent marketingni baholash

Kontent marketingni baholash strategik va taktik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Strategik jihatdan kontentni baholashni birinchi qadamida 2 toifadagi maqsadlar, bular birinchisi savdoni oshirish, ikkinchisi esa brendni tanitish bilan bog'liq natijaga erishildimi yoki yo'qligi baholanishi kerak. Taktik jihatdan esa, marketologlar iste'molchilarni tinglash va marketing tahlil vositalari yordamida kontentni samaradorligin kuzatishlari lozim. Kontentni kuzatish ko'rsatkich bular(kontent necha marta ko'rilgani, kontentni qancha odam kuzatgani va ulardan necha foizi brendni eslab qolgani). Bundan tashqari mijozlar harakati ham muhim hisoblanadi, ular asosan kontent mijozni harakatga undaydimi yoki yo'qligi o'lchanadi. Odatiy ko'rsatkichlarga; yoqish (like) va taassurotlar soni o'rtasidagi nisbat, shu bilan birga ro'yhatdan o'tish va sotib olish kabi muayyan ammalarni bajargan auditoriya ulushi kiradi.

8 -bosqich: Kontent marketingni rivojlantirish

Kontent marketingning an'anaviy marketingdan asosiy afzalliglaridan biri bu biz kontentni qanchalik darajada ishlayotganini ya'ni kontentning mavzusini, formatini va yo'nalishini tarqatish kanali bo'yicha kuzatishimiz mumkin. Kontentni kuzatish uni tahlil qilish va rivojlantirish uchun juda foydali hisoblanadi. Kompaniyaning bozordagi holati dinamik bo'lganligi sababli, kontent marketing vaqti-vaqti bilan takomillashtirish muhimdir. Bunda kompaniyalarning marketing direktorlari kontentni rivojlantirish uchun uning mavzusi, formati va yo'nalishlarini zamonaviy trendlarga muvofiq lashtirish lozim.

2023-yil may oyida kontent marketing bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar o'rtasida AQSH o'tkazilgan so'rovnoma da 37 foizi brend xabardorligini yaratish o'zlarining kontent marketing faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ta'kidlaganlar. 34 foizi sotish bilan bog'liq jarayonda va 29 foizi esa mavjud mijozlar o'rtasida sodiqlikni oshirish maqsadida foydalanishgan (3-rasm).



3-rasm: Kontent marketingning maqsadlari so'rovnomasi

Manba: www.statista.com/statistics/1264902/goals-branded-content/



XULOSA VA TAKLIFALAR

Bugungi raqamli dunyoyimizda marketologlarning ko'pchiligi reklamalardan foydalanishdan ko'ra ko'proq kontent marketingga o'tishmoqda. Shu sababli, kompaniyalarning marketing xodimlari qimmatli xabarlarini yetkazish o'rniga, mijozlar uchun qiziqarli, dolzarb va foydali bo'lgan kontentni tarqatishlari kerak. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalarga quyidagi kontent turlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

- **Podkastlar** kontent marketingining qulay va ommabop shaklidir, chunki ular yo'l-yo'lakay tomoshabinlar uchun osonlik bilan foydalanish mumkin bo'lgan kontentni taqdim etadi. Podkastlarda tajriba va haqiqiylikni namoyish etish orqali tinglovchilar bilan mustahkam aloqalarni o'rnatish mumkin.
- **Ijtimoiy tarmoqlar** - bu kontent marketingining o'ziga xos shakli, chunki u keng auditoriya bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, kontent yaratish va reklama qilishda ham foydalanish mumkin.
- **Memlar** - bu madaniy ahamiyatga ega voqealar yoki g'oyalar haqida hazil-mutoyiba bildiruvchi tasvirlar, videolar yoki matnlar. Ular kontent marketingining yuqori samarali shakli sifatida paydo bo'ldi. Shuningdek, ular brend shaxsiyati, o'ziga xosligi va xabardorligini rivojlantirish uchun juda foydali hisoblanadi.
- **Keys tadqiqotlari** kontent marketingi uchun ajoyib ijtimoiy dalil, chunki ular kompaniyani mijozlarning muammolarini qanday hal qilganiga oid real misollarni taqdim etadi. Ular aniq natijalarni ko'rsatish orqali ishonchni mustahkamlaydi.
- **Vebinarlar** yoki **onlayn tadbirlar** brend tajribalarini mijozlarga qisqa shaklda namoyish qilish mumkin. Veb-seminarlar yoki onlayn tadbirlarni o'tkazish kompaniyaga real vaqt rejimida tinglovchilar bilan muloqot qilish, savollarga javob berish va qimmatli ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Vebinarlarni kutish uning muvaffaqiyatini ta'minlashning asosiy elementidir. Veb-seminarlarni turli kanallar, jumladan, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlar orqali oldindan targ'ib qilish mumkin.
- **Videolar kontenti** tobora ommalashib bormoqda, chunki u an'anaviy kontent marketingi turlariga qaraganda butunlay boshqacha auditoriya bilan aloqalar o'rnatilmoqda. Garchi odamlar hanzuzgacha ma'lumot olish uchun yozma tarkibni qidirsalar ham, ko'pchilik videolarni qulay va qiziqarli formati tufayli kuzatmoqda. Misol uchun, har oyda 2,8 milliarddan ortiq kishi YouTube'dan foydalanadi
- **Infografika** kontent marketingining samarali turi hisoblanadi, chunki ular murakkab ma'lumotlarni sodalashtirilgan, vizual va jozibali tarzda taqdim etadi
- **Kurslar** auditoriyaga yangliklarni o'rgatish va kompaniyaning o'z sohasidagi obro'-e'tibor orqali brendni yaratish uchun kuchli vositadir. Bu bir qator o'quv qo'llanmalari, seminarlar yoki keng qamrovli kurslar bo'lishi mumkin, ta'lim mazmunini taqdim etish tinglovchilaringiz orasida ishonch va sodiqlikni oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston –2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079-sonli Farmoni.
2. Philip Kotler, Hermawan Kartajaya & Iwan Setiawan, Marketing 4.0. Moving from Traditional to Digital, Published by John Wiley & Sons, New Jersey, 2017. P.149-170.
3. Dharma, I & Lasmawan, I & Suastika, I. (2022). Digital Technology To Improve Marketing Strategy In The Era Of Pandemic Covid-19. The Es Economics and Entrepreneurship. 1. 41-48. 10.58812/ese.v1i02.41
4. www.statista.com/statistics/527554/content-marketing-revenue.
5. www.statista.com/statistics/1264902/goals-branded-content.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.